

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI
VOLUME-3, ISSUE-04

MUSTAQILLIK YILLARIDA YOSHLAR MUAMMOSINI O'RGANISHGA
DOIR AYRIM MULOHAZALAR.

Sh.S.To'rayeva

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Tarix fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotasiya. *Mustaqillik yillarida Yoshlarga oid davlat siyosati va uning amalga oshirilishi, Yoshlik mavzusidagi tadqiqotlar tarixshunosligi, Mustakillik yillarida ijtimoiy-siyosiy va madaniy–ma'rifiy jarayonlarda yoshlarning o'rni va ro'li, yoshlar madaniyatining transformatsiyasi, globalizatsiya va yoshlar madaniyati, shaxar va qishloq yoshlarining madaniyati xususiyatlari, Yoshlar me'yorlari, qadriyatlar, turmush tarzini, xatti-harakatlar, uslublar va qiziqishlar, yoshlar tomonidan ishlatiladigan kiyim-kechaklar ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi. Tadqiqot asosida yoshlarning madaniyatini tushunish, ularning rivojlanishi va zamonaviylikning turli salbiy ta'sirlari va tendentsiyalarini oldini olish bo'yicha qimmatli tavsiyalar ishlab chiqiladi.*

Kalit so'zlar. *Yoshlarga oid davlat siyosati, Yoshlar masalasi, tarix, pedagogika, falsafa, psixologiya, sotsiologiya, siyosatshunoslik, huquqshunoslik va iqtisodiyot yo'nalishlari, ma'naviy qadriyatlar, O'zbekiston yoshlar ittifoqi, urf-odat va an'analar, ta'lim muassasalari, oila, mahalla va fuqarolik jamiyat institutlari.*

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikning dastlabki yillarida yoshlar muammolarini ilmiy tadqiq etish dolzarb masalaga aylandi. Fanning qay sohasi bo'lishidan qat'iy nazar, yosh avlod muammolarini chetlab o'tmaganligiga guvoh bo'lish mumkin.

Yoshlarning manfaatlari va huquqlarini himoya qilish borasidagi muammolarni o'z vaqtida hal etish, uzluksiz ta'lim tizimida islohotlarni yanada chuqurlashtirish, real iqtisodiyotda va mamlakat hayot faoliyati sohalarida ta'lim muassasalari tomonidan tayyorlanadigan mutaxassislarga bo'lgan talabni ta'minlash maqsadida, 2008 yilning "Yoshlar yili" deb e'lon qilinganligi xam juda katta ahamiyat kasb etadi.

Yurtimizda qabul qilingan qonunlar yoshlarga oid davlat siyosati asoslari uchun muhim mezon bo'lib xizmat qildi¹. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 14 sentabrda yangi tahrirda "Yoshlarga oid davlat siyosati

¹ "Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатининг асослари тўғрисида"ги қонун 1991 йил, 20 ноябрь. // Халқ сўзи, 1992, 8 январ. 1-2 бетлар.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI
VOLUME-3, ISSUE-04**

to'g'risida"gi qonun², "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqini qo'llab-quvvatlash to'g'risida" 27 (787)-son farmoni³ hamda 2020 yil 30 iyundagi "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6017-son Farmoniga muvofiq: qabul qilinishi va unda belgilangan vazifalar masalani yangi bosqichga ko'tardi⁴.

Vazirlar Mahkamasining 18.01.2021 yildagi "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 23-son qarori qabul qilindi⁵.

BMTning "Yoshlar–2030" strategiyasida belgilangan "Yoshlar manfaatlarini ko'zlab, ular bilan ishlash" bosh tamoyiliga asoslanadi. Shuningdek hujjat bilan Konsepsiyani 2021-2022 yillarda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Konsepsiya 2023 yildan boshlab har yili tasdiqlanadigan tegishli «yo'l xaritalari» asosida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi⁶. Qabul qilingan Konsepsiyada bugungi kun yoshlar manfaatlarini ko'zlagan holda birqancha vazifalarni bajarish nazarda tutilgan.

O'zbekistonning doimiy aholisi soni 2026 yil 7 aprel holatiga ko'ra, 38 million 401 ming 654 kishini tashkil etadi⁷. Respublikamizning yoshlar deb qo'llaniladigan 14-30 yoshni tashkil etadigan qatlami soni Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025 yil 1 yanvar holatiga respublika bo'yicha yoshlar soni 9 630 556 kishini yoki jami aholining 25,7 foizini tashkil etgan. Ushbu holat Respublika viloyatlar bo'yicha yoshlar soni: Qoraqalpog'iston R. – 545 429 kishi (26,9 %), Andijon viloyati – 870 893 kishi (25,2 %), Buxoro viloyati – 514 041 kishi (24,7 %), Jizzax viloyati – 413 321 kishi (26,9 %), Qashqadaryo viloyati – 969 212 kishi (26,6 %), Navoiy viloyati – 269 502 kishi (24,6 %), Namangan viloyati – 790 162 kishi (25,2 %), Samarqand viloyati – 1 141 810 kishi (26,6 %), Surxondaryo viloyati – 783 741 kishi (26,6 %), Sirdaryo viloyati – 247 466 kishi (26,6 %), Toshkent viloyati – 773 817 kishi (24,9 %), Farg'ona viloyati – 1 039 594 kishi (25,1 %), Xorazm viloyati – 541 654 kishi (26,7 %) hamda Toshkent shahri – 729 914 kishi (23,4 %) ni tashkil etadi⁸.

² Ўзбекистон Республикаси қонуни. Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида. (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2016 йил, 37-сон, 426-модда). – Тошкент: «Адолат», 2016. – 80 б.

³ <https://gk-usbekistan.de/uz/2017/07/29/ozbekcha>

⁴ <https://lex.uz/docs/4880129>

⁵ <https://lex.uz/docs/5234746>

⁶ https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/eshlarga_oid_davlat_siesati_koncepciyasi_tasdiqlandi.

⁷ <https://daryo.uz/uz/2026/04/07/ozbekistonda-doimiy-aholi-soni-384-milliiondan-oshdi/>

⁸ <http://insonhuquqlari.uz/uz/news/skolko-molodezhi-v-uzbekistane>

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI
VOLUME-3, ISSUE-04**

Ushbu statistik ma'lumotlardan kelib chiqqan holda quyida vazifalarni belgilab olish zarurati tug'ilmoqda.

Ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning sifatli ta'lim olishini ta'minlash, yoshlarga munosib mehnat sharoitlarini yaratish, iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj, nogironligi bor yoshlar, mehribonlik uylarida tarbiyalangan, yetim bolalar, boquvchisini yo'qotgan va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlash, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, yoshlar jamoat tashkilotlari va volontyorlik harakatlarini qo'llab-quvvatlash va boshqalar belgilangan vazifalardan hisoblanadi.

Yoshlar masalasini tadqiqotning bosh obyekti sifatida tanlab, ilmiy tadqiqot olib borayotgan turli fan sohasi vakillarining o'z yo'nalishlari bo'yicha tadqiqot olib bordilar. Yoshlar masalasida asosan tarix, pedagogika, falsafa, psixologiya, sotsiologiya, siyosatshunoslik, huquqshunoslik va iqtisodiyot yo'nalishlarida o'rganilgan.

Mustaqillik yillarida yoshlar mavzusiga oid muammolarning tarixiy jihatlari tadqiqot obyekti sifatida keng o'rganilish boshlandi. Mazkur yo'nalishda R.Murtazayeva, A.Mavrulov, D.Rahimova, I.S.Saifnazarov, X.Samiboyev, X.Tojiboyeva kabi mutaxassislar o'z ilmiy ishlarida yoshlar masalasini yoritib berishga xarakat qildilar.

Mustaqillik yillarida yaratilgan tarixiy tadqiqotlarning aksariyati istiqloqligacha bo'lgan tarixiy davrlarni yoritganligi bilan xarakterlidir. Masalan, A.Alikulov, K.Abdullayev, A.Xakimov R.N.Tolipov va S.U.Sulaymonovalarning ilmiy tadqiqotlarida yoshlar masalasini yoritilgan.

Bugungi kunda yoshlar axloqiy kamolotining nazariy-metodologik jihatlari, yigit-qizlarning o'z-o'zini anglash komponentlari bilan o'zaro aloqasi o'rganish davr talabi bo'lib kelmoqda. Tadqiqotda yoshlar qadriyat mezonlaridagi o'zgarishlarni o'tish davrining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlari aspektida kuzatish, jamiyat rivojlanishidagi burilish davrida axloqiy ideallari shakllanishining ko'p qirrali jarayonlarini tadqiq etish hamda sovet davridan qolgan, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida paydo bo'lgan va yoshlarning qadriyat mezonlariga ta'sir ko'rsatuvchi muammolarni aniqlash va ularning yechimiga oid tavsiyalar tadqiqotchi D.A.Gulamova "Mustaqillik davrida O'zbekiston talaba yoshlari ma'naviy qadriyatlarining shakllanish tarixi" nomli ilmiy ishida batafsil yoritib berilgan⁹.

⁹ Гуламова Д.А. Мустақиллик даврида Ўзбекистон талаба ёшлари маънавий кадриятларининг шаклланиш тарихи. Тарих фан. номз. дисс. ... автореферати. – Тошкент: ЎзФА ТИ, 2008. – 33-бет.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI
VOLUME-3, ISSUE-04**

Shuningdek, O'.Qayumov istiqlol yillarida yoshlarning jamiyatga ijtimoiy moslashuvida turli omillarning ta'siriga oid tadqiqotlarini sotsiologik so'rovnomalar orqali o'rgangan. B.Umarov va Sh.Jabborovlar esa globalashuv davrida yoshlarning ma'naviy axloqiy tarbiyasi oid tadqiqotlar mualliflari hisoblanishadi¹⁰.

O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida yoshlarning o'rni masalasida ham qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. O.Topildiyevning tadqiqotida o'z aksini topgan. O.Topildiyev O'zbekiston aholisining ijtimoiy-demografik holati va unda yoshlar qatlamini demografik tahlil etish, mustaqil O'zbekistonda yoshlarga qaratilgan davlat siyosatini tahlil etish va "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining mamlakatda islohotlarni amalga oshirishda tutgan o'rnini ko'rsatish, ilm-fan va ta'lim sohasida, O'zbekiston madaniyati va sportining rivojlanishida yoshlarning qo'shgan hissasini tahlil qilishga harakat qilgan¹¹.

Yoshlar muammosini pedagogik aspektda o'rganilishida masalasi, xususan talabalar faoliyatini pedagogik tadqiq etish soxasida M.Inomova, Z.Ismoilova, Sh.Sharipov, Q.Quronboyev, B.Raximov, O.Jamoliddinova tadqiqotlari yoshlar pedagogik muammolarning muhim obyektga aylanganini xulosa qilish mumkin.

Yoshlar kundalik turmush-tarzi, ularning orzu intilishlari, ta'lim- tarbiyasi, yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash, uyushmagan yoshlar bilan ishlash, zararli illatlardan himoya qilish masalalari istiqlol yillarida bevosita yoshlar bilan ish olib boradigan tashkilotlarning maqsad va vazifalari hisoblangan. Bu borada o'tgan yillar mobaynida yoshlar tashkiloti – Kamolot yoshlar ijtimoiy harakati tomonidan samarali ishlar amalga oshirildi. Bugungi kunda O'zbekiston yoshlar Ittifoqi deb qayta nomlanganligi, yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar O'zbekiston yoshlar Ittifoqi tizimida amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston yoshlar ittifoqi tizimida 3 yil va undan ko'p muddat davomida faol ishlab kelayotgan xodimlarga uy-joy sotib olish uchun ipoteka kreditining boshlang'ich to'lovi O'zbekiston yoshlar ittifoqining rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan to'lanadi;

O'zbekiston yoshlar ittifoqining faol a'zosi bo'lgan oliy ta'lim muassasalarining bakalvriat va magistratura bosqichlari talabalariga o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi 86 foiz va undan yuqori bo'lgan taqdirda ta'lim

¹⁰ Б.Умаров, Ш.Жабборов. Глобаллашув ва ёшлар тарбияси. Т.: "Академия". 2011. 56-бет, Б.Умаров, Ш.Жабборов. Глобаллашув ва маънавий-ахлоқий тарбия. Т.: "Академия". 2010. 128-бет.

¹¹ Топилдиев О.Р. Ўзбекистоннинг ижтимоий-сиёсий ҳаётида ёшларнинг тутган ўрни. Тарих фан. номз. дисс. автореф. Т.: ЎзМУ, 2008. 8-9-бет.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI
VOLUME-3, ISSUE-04**

bo'yicha to'lov kontrakti miqdorining 35 foizi O'zbekiston yoshlar ittifoqining rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan to'lanadi¹².

Shunday masalalar ilmiy tadqiqotlarda o'z aksini topganligini ko'rish mumkin.

Xususan, Q.Quronboyev¹³, G.Ibragimova, O.Jamoliddinovaning ilmiy ishlarida yoshlar madaniyatini rivojlantirishning pedagogik mohiyati, yoshlar turmush madaniyatida bo'sh vaqtni samarali tashkil etish texnologiyalari, yoshlar sog'lom turmush madaniyatini rivojlantirishda ta'lim muassasalari, oila, mahalla va fuqarolik jamiyat institutlarining hamkorligiga bag'ishlangan¹⁴.

Mutaxassislar yoshlar muammolarini, ularning turmush tarziga oid masalalarni kengroq yoritishga harakat qilganlar. Boshqa sohalarga nisbatan falsafa sohasidagi ilmiy tadqiqotlar yoshlar masalasini kengroq yoritishga qaratilgan. Bu borada G.Tulenova tahlil qilgan¹⁵.

M.Tursunov yosh oilalar rivojlanishining milliy etnik xususiyatlarini o'rganib, O'zbekistonda yosh oilalar turmush tarzi va ularning dialektikasi, ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida yosh oilalar turmush tarzida urf-odat va an'analarning o'rni, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik xususiyatlarini o'rgangan¹⁶.

Hozirga qadar obyekt yoshlar bo'lgan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilganiga qaramay, ularning kundalik hayot, bo'sh vaqtdan foydalanish madaniyati, jamiyatga moslashuviga ta'sir etuvchi omillar, turmush tarzidagi transformatsion jarayonlar etnosotsiologik tadqiqotlarda o'z ifodasini topmagan. Shundan kelib chiqqan holda ilmiy ishda aynan shu yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratish ishning dolzarbligini oshiradi.

Ilmiy tadqiqot olib borish jarayonida ko'rib chiqilgan adabiyotlar tahlilidan shu narsa ma'lum bo'ldiki, zamonaviy yoshlar kundalik hayotini etnosotsiologik aspektlarda tadqiq etish, ularning hayotiy muammolarini, davlat miqyosida olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning yosh avlod kundalik hayotiga ta'sirini o'rganish, yoshlarning bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etish kabi masalalarni ilmiy jihatdan tahlil qilish bugungi kunning zaruriyatiga aylangan. Mazkur sohada olib

¹² Ўзбекистон Республикаси Президенти фармони. Ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигини ошириш ва Ўзбекистон ёшлар иттифоқи фаолиятини қўллаб-қувватлаш тўғрисида. (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 27-сон, 607-модда). – Тошкент ш., 2017 йил 5 июль, ПФ-5106-сон.

¹³ Куронбоев Қ.Қ. Талабаларнинг маънавий-ижтимоий фаолликларини ривожлантиришнинг педагогик асослари (ёшлар ташкилотлари мисолида). Педагогика фан. номз. дисс... Ўзбекистон педагогика фанлари илмий текшириш институти. Тошкент, 2000., 155-бет.

¹⁴ Жамолидинова О.Р. Ёшлар соғлом турмуш маданиятини ривожлантиришда узвийлик ва узлуксизлик тамойиллари амал қилишининг педагогик механизмларини такомиллаштириш. 13.0.01. – Педагогика назарияси ва тарихи. Таълимда менежмент. (педагогика фанлари). Тошкент - 2015. 260 бет.

¹⁵ Туленова Г.Ж. Ёшлар ижтимоий фаоллигини оширишда маънавий омилнинг роли (Ижтимоий фалсафий таҳлил) фалс. фан докт. дисс. ЎЗМУ. Тошкент. 2006. 317 бет.

¹⁶ Турсунов М.Б. Тенденции и национально-этнические особенности развития молодой семье. дисс... канд. философ. наук. ТГУ. Ташкент. 1993. С.169.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI
VOLUME-3, ISSUE-04**

borilayotgan davlat siyosatini yoshlar ongiga ta'sir ko'rsatayotganligi bilan birga ularning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga rioya etish darajalari, transformatsiyaga uchrayotgan urf-odat va an'analarning yoshlar hayotidagi o'rni va ahamiyatiga bog'liq bo'ladi.

Yoshlarning kundalik turmushi bilan bog'liq an'ana va urf-odatlar to'liqligicha o'rganilmaganligi aniqlandi. Shu sabab ham mazkur tadqiqotni dala tadqiqotlari asosida o'rganish muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rinib turibdi.

O'zbekiston yoshlari kundalik turmush madaniyatini o'rganishda hududiy tafovutlarni aniqlash, masalani qiyosiy tadqiq etish barobarida shahar va qishloq yoshlari kesimida o'rganish imkonini beradi. Shuningdek bevosita yoshlarning turar joylariga borib ularning kunlik mashg'ulotlari, o'qish, ish va undan tashqaridagi faoliyatlari, tuman, shahar va viloyatlar kesimida yoshlarning kundalik turmush tarzini samarali o'tkazishga oid yaratilgan real shart-sharoitlar bilan tanishish muhim xulosalarni berish uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. “Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатининг асослари тўғрисида”ги қонун 1991 йил, 20 ноябрь. // Халқ сўзи, 1992, 8 январ. 1-2 бетлар.
2. Ўзбекистон Республикаси қонуни. Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида. (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2016 йил, 37-сон, 426-модда). – Тошкент: “Адолат”, 2016. – 80 б.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти фармони. Ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигини ошириш ва Ўзбекистон ёшлар иттифоқи фаолиятини қўллаб-қувватлаш тўғрисида. (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 27-сон, 607-модда). – Тошкент ш., 2017 йил 5 июль, ПФ-5106-сон.
4. Гуламова Д.А. Мустақиллик даврида Ўзбекистон талаба ёшлари маънавий кадриятларининг шаклланиш тарихи. Тарих фан. номз. дисс. ... автореферати. – Тошкент: ЎзФА ТИ, 2008. – 33-бет.
5. Б.Умаров, Ш.Жабборов. Глобаллашув ва ёшлар тарбияси. Т.: “Академия”. 2011. 56-бет, Б.Умаров, Ш.Жабборов. Глобаллашув ва маънавий-ахлоқий тарбия. Т.: “Академия”. 2010. 128-бет.
6. Топилдиев О.Р. Ўзбекистоннинг ижтимоий-сиёсий ҳаётида ёшларнинг тутган ўрни. Тарих фан. номз. дисс. ... автореферати. Т.: ЎЗМУ, 2008. 8-9-бет.
7. Куронбоев Қ.Қ. Талабаларнинг маънавий-ижтимоий фаолликларини ривожлантиришнинг педагогик асослари (ёшлар ташкилотлари мисолида). Педагогика фан. номз. дисс... Ўзбекистон педагогика фанлари илмий текшириш институти. Тошкент, 2000., 155-бет.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI
VOLUME-3, ISSUE-04**

8. Жамолидинова О.Р. Ёшлар соғлом турмуш маданиятини ривожлантиришда узвийлик ва узлуксизлик тамойиллари амал қилишининг педагогик механизмларини такомиллаштириш. 13.0.01. – Педагогика назарияси ва тарихи. Таълимда менежмент. (педагогика фанлари). Тошкент - 2015. 260 бет.
9. Туленова Г.Ж. Ёшлар ижтимоий фаоллигини оширишда маънавий омилнинг роли (Ижтимоий фалсафий таҳлил) фалс. фан докт. дисс. ЎзМУ. Тошкент. 2006. 317 бет.
10. Турсунов М.Б. Тенденции и национально-этнические особенности развития молодой семье. дисс... канд. философ. наук. ТГУ.Ташкент. 1993. С.169.
11. https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/eshlarga.
12. <http://insonhuquqlari.uz/uz/news/skolko-molodezhi-v-uzbekistane>
13. <https://gk-usbekistan.de/uz/2017/07/29/ozbekcha>
14. <https://lex.uz/docs/4880129>
15. <https://lex.uz/docs/5234746>
16. https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/eshlarga_oid_davlat_siesati_konc_epciyasi_tasdiqlandi.
17. <https://daryo.uz/uz/2026/04/07/ozbekistonda-doimiy-aholi-soni-384-milliondan-oshdi/>